
Mehr-oqibat va saxovat oyida qalblarga shodlik ularashilmoqda

Davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan Umra ziyoratiga jo'natish tashabbusi ilgari surilgan edi. Farg'ona shahridan ham bir guruh yurtdoshlarimiz Umra ziyoratiga yuborildi.

Hamshaharlarimiz kuni kecha Umra ziyoratini o'tab qaytdilar. Farg'ona shahar hokimi o'rinnbosari Dilshodaxon Xolmatova va hokimlik vakillari ziyoratchilarni yo'qladilar.

"Cheksho'ra" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Hadyaxon Xolmatova ham Umra safarida bo'lib qaytdi. Yaratilgan sharoitlardan minnatdor bo'lib, Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Mazkur tashabbus davomida Farg'ona shahridan jami 8 nafar fuqarolar Umra safariga borgan bo'lsalar, ularning 6 nafari "Ayollar daftari"da turgan xotin-qizlardir.

2023-04-10 11:25:05